

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HIS-HAYAJON GAPLARINI  
O'QITISHDA TINISH BELGILARINING AHAMIYATI

*Ziyaev Avaz Ixtiyorovich*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,  
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası  
professori, filologiya fanlari doktori*

*X.Abdullayeva*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,  
Xorijiy tillar fakulteti,  
II –bosqich magistranti*

**Аннотация.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida his-hayajon gaplarni o'qitishda tinish belgilarining ahamiyati xususida fikr yuritiladi. Tinish belgilarining noto'g'ri ishlatilishi ma'noni o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkinligi, shuningdek tinish belgilari nafaqat tushunmovchilikni oldini oladi, balki o'quvchiga nafas olib olishga ham yordam berishi kabi masalalar tahlilga tortiladi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается важность пунктуации при обучении эмоциональным предложениям на английском и узбекском языках. Анализируются такие вопросы, как то, что неправильное употребление знаков препинания может привести к изменению смысла, а также то, что знаки препинания не только предотвращают недопонимание, но и помогают учащемуся дышать.

**Annotation.** This article discusses the importance of punctuation in teaching emotional sentences in English and Uzbek. Issues such as the fact that the incorrect use of punctuation marks can lead to a change in meaning, as well as the fact that punctuation marks not only prevent misunderstandings, but also help the student to breathe, are analyzed.

**Kalit so'zlar:** his-hayajon gap, nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul.

**Ключевые слова:** эмоциональное предложение, точка, вопросительный знак, восклицательный знак, запятая, двоеточие, точка с запятой.

**Key words:** emotional sentence, full stop, question mark, exclamation mark, comma, colon, semicolon.

Ma'lumki, sintaktika tilshunoslikning eng asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunda gap o'rganiladi, ya'ni muloqot sharhi tahlil qilinadi. Muloqotning ikki xil shakli mavjud: og'zaki nutq va yozma nutq.

Og'zaki nutq – bu so'zlovchi(lar) va tinglovchi(lar) o'rtasida so'zlash va tinglash

asnosida sodir bo'ladigan jarayondir. Bular bizning turmush tarzimizda sodir bo'ladigan doimgi suxbatlar, to'ytantanadagi vazlar, yoki televideniya suhandonining o'qigan nutqi ham bo'lishi mumkin.

Yozma nutq esa kioblardagi asarlar, xatlar, qonun xujjatlari, xullas, qayd qilib qo'yiladigan, yoziladigan hamma narsa borki yozma nutq hisoblanadi. Mana shu og'zaki va yozma nutqdagi gaplarni tahlil qilish bilan sintaktika shug'ullanadi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek gapning darak, so'roq, buyruq va his-hayajon kabi turlari bor. Demak, hissiyot bilan aytilgan har qanday gap xis-hayajon gap hisoblanadi.

Og'zaki nutqda xis-hayajon gaplarni aniqlash qiyin emas, chunki urg'u va ohang yordamida anglash mumkin. Lekin yozma nutqda na urg'uni va na xis-hayajonni ko'rsata olish mumkin. Bunda tilshunoslikning yana bir bo'limi punktuatsiyaning o'rni beqiyosdir. Qiyoslang:

John has gone home.

John has gone home?

John has gone home!

Bu yerda bir xil so'zlardan tuzilgan uchta bir xil gap. Farqi shundaki, ularga uch xil tinish belgisi qo'yilgan [5; 36-39].

Demak birinchi gap tinglovchiga xabar beradi, ya'ni darak gap. Ikkinchisi John ning uyga ketgan yoki ketmaganligini aniqlashtirish maqsad qilingan. Uchinchi gapda esa John uyga ketganligiga so'zlovchining munosabatini ko'rishimiz mumkin. Bunda kontekstdan tashqari holatda so'zlovchining kayfiyatini aniqlash biroz qiyin bo'lishi mumkin. Chunki bunda taajjublanish, hayratlanish, g'azab kabi ma'nolar bo'lishi mumkin va bu to'liq kontekstda qaysi ma'noligini o'quvchi sezib oladi.

Ingliz rennessansi davri grammatiklarining yozish va o'qishga oid kitoblariga qaraydigan bo'lsak, shuni anglashimiz mumkinki, ular o'z kitoblarida to'g'ri tinish belgilarini ishlatishga alohida bo'lim ajratishgan. Hatto mualliflar tinish belgilarining ahamiyatini ham shu bo'limlarda izohlab ketgan. Lye ga ko'ra " yozishda yoki nashr etishda ishlatilgan pauza va to'xtalish tinish belgilari o'qishda o'z ahamiyatiga ega." Smith o'z asarida Renessans davrida tinish belgilarini o'qitish nima uchun muhim bo'lganligining sabablarini yozadi: Yozuvni farqlash uchun o'rganuvchilar tomonidan tinish belgilaridan foydalanish Orfografiyaning yoki to'g'ri yozish qoidalarining bir qismidir. Tinish belgilaridan foydalanmaslik nafaqat to'g'ri o'qib tushunishga halal beradi, balki yozuvchining hissiyotini to'liq ko'rsatib bera ham olmaydi. Aslida yozuvchining maqsadini to'g'ri yetkizib bera olish tinish belgilarini o'qtishdan asosiy maqsaddir.

Tinish belgilarining noto'g'ri ishlatilishi ma'noni o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Masalan: Hazrat Navoiyning donoligini misol qilib keltirish mumkin: G'azab iskanjasida shoshilinch o'lim hukm chiqarga shoh Husayn Boyqaroning xatosini birgina vergulning o'rnini almashtirish bilan to'g'irlab qo'ygani barchamizga ma'lum.

“Ozodlik yo’q, o’lim!” bo’lgan hukmni punktuatsiya yordamida bobomiz mana bunday ko’rinishga keltirgan: “Ozodlik, yo’q o’lim!” [1; 65-69].

Shuningdek tinish belgilari nafaqat tushunmovchilikni oldini oladi, balki o’quvchiga nafas olib olishga ham yordam beradi. Rodriguez-Alvarez ogohlantiradiki noto’g’ri nuqtada qilingan pauza tinglovchilarga ikki tomonlama jumboq eshitalishi mumkin: ajratilgan gaplar qo’shilib eshitalishi yoki qo’shilgan gaplar ajratilib eshitalishi mumkin.

Wharton, Jeremiah ga ko’ra punktuatsiyaning ishlatilishi hissiyotni aniqlab beradi, har bir tinish belgisi qancha muddat pauza qilishni aytib turadi, o’quvchiga to’g’ri talaffuz qilishga yordam beradi, ya’ni ko’tirilish ohangi bilan yoki tushish ohangi bilan talaffuz qilinishini ko’rsatib turadi. [4; 32-36].

Bugungi kunda tilshunoslikda nuqta (.), so’roq belgisi (?), undov belgisi (!), vergul (,), ikki nuqta (:), nuqtali vergul (;) kabi tinish belgilari mavjud. Bulardan nuqta, so’roq belgisi va undov belgisi gapning tugaganligini bildiradi. Qolgan tinish belgilari esa gapda yarim to’xtalish, izohlash va sanash maqsadlarida foydalaniladi.

Xis-hayajon gaplarda asosan undov belgisi ishlatilsada ba’zi hollarda so’roq belgisi va nuqtani ham ko’rishimiz mumkin. Quyida xis-hayajon gaplarda tinish belgilarining ishtalish holatlarini tahlil qildik. Undov belgisi tinish belgilaridan biri bo’lib, kuchli hissiyotni yoki biror narsaga urg’u berilgan xis-hayajon gaplar va undov so’zlardan keyin qo’yiladi. Undov belgisi qo’yilsa gapning tugaganligini bildiradi. Masalan: Get out of here! Wow! What a beautiful car! [3; 54-58].

Undov belgisi grafikasi vertikal to’g’ri chiziq va pastida nuqta qo’yiladi. (!) Bu belgining kelib chiqishi qadimgi lotin tiliga borib taqaladi. U ushbu tildagi rohat (io) so’zidan kelib chiqqan. Belgining zamonaviy grafik ko’rinishi O’rta asrlarda paydo bo’lgan. O’rta asr xattotlari io so’zini gapning oxirida rohatlanish ma’nosini ifodalash uchun ishlatishgan. Io so’zi urre degan ma’noni ifodalagan. Vaqt o’tishi bilan i harfi o ning ustiga yoziladigan bo’ldi va o kichikroq yozilib, belgiga aylandi. Undov belgisi ingliz tilida XV asrda paydo bo’ldi va zavqlanish belgisi deb ataldi. Undov belgisining 1970-yillargacha yozuv mashinalarida standart tugmasi mavjud emas edi. Uning o’rniga probel tugmasi va tutuq belgisi tugmasi yozilar va shu xishayajon gap ekanligini bildirardi. 1950-yillarda Amerikada matn terish sohasida portlash (bang) belgisi paydo bo’ldi. Bu belgining nomi matn terish sohasida kelib chiqqan bo’lsada belgi asosan komik kitoblarda topnoncha otilishini ifoda etgan. Undov belgisi odatda Lotin alifbosiga asoslangan tillarda uchraydi. Lekin hozirda Krill, Arab yozuvlarida va Xitoy iyerogliflarida ham keng uchraydi. Undov belgisi bugungi kunda nafaqat tilshunoslikda balki boshqa sohalarda ham ishlatiladi. Masalan: matematika fanida “factorial” amallarni bajarishda ishlatiadi. Bundan tashqari yo’l belgilari orasida ham undov belgisi yakka alohida ishlatilib, haydovchilardan ehtiytkorlikni talab qilganda qo’yiladigan belgi hisoblanadi. Kompyuter va dasturlash sohaslarida undov belgisining

vazifalari talaygina. Masalan: undov belgisi mantiqiy inkorni ifodalaydi.  $A \neq B$  bo'lsa, bunda  $A \neq B$  ga teng emas degan ma'noni bildiradi. Yoki  $\neq A$  mantiqan bu  $A$  emas degan ma'noni ifodalaydi. Tilshunoslikda undov belgisi xis-hayajonli gap va undov so'zlarni ifodalaydi. Undov so'zlar odatda gapning boshida keladi. Ouch! you are hurting me! Undov so'zlar tahlilda sintaktik jihatdan gapning qismi emas, balki alohida bir gapdir. Lekin undov so'zdan keyin vergul qo'yilsa, gapning tarkibiy qismi bo'lib keladi. Talaffuzda kamroq pauza bo'ladi.

Masalan: Oh! I didn't know that was you. Oh, I didn't know that was you. Ikkinchi gapdagi "oh" undov so'zi gapga sintaktik jihatdan bog'liq va kiritma vazifasida kelmoqda. Ma'no jihatdan qaraladigan bo'lsa, birinchi gap ikkinchi gapga qaraganda xissiyot bilan aytilyapti. Undov so'zlar ba'zan gapning o'rtasida kelishi mumkin: On the walk, oh! there was a frightful noise.

Bunda undov so'z oldindan vergul bilan ajratiladi va undan keyin undov belgisi yoki vergul ham qo'yilishi mumkin. At the airport, wow, there were a lot of people. [2; 24-27].

Shuningdek undov belgisi buyruq gaplarda ham ishlatilishi mumkin va bunda nuqta qo'yilgan buyruq gaplardan ko'ra ma'no kuchliroq bo'ladi. Masalan: Stop! If you move, I will shoot you. Stop. You don't need to do that.

Ma'no kuchaytirish maqsadida birdan ortiq undov belgisi qo'yilishi mumkin. Lekin bu rasmiy matnlarda ishlatilmaydi. That is great!!! I am very happy to see you!!! Wow!!! Good morning!!!

Undov belgisining asosiy funksiyasi xis-hayajon gaplarda ko'rinadi. Xis-hayajon gaplarni ikki turga ajratish mumkin. Bular ohang yordamida yasaladigan xishayajon gaplar va wh (what va how) so'zlari yordamida yasaladigan xis-hayajon gaplardir. Birinchi turdagi xis-hayajon gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi majburiy. Chunki ohangni yozma nutqda ifodalab bo'lmaydi. Faqatgina tinish belgilari yordamida ko'rsata olishimiz mumkin.

Agar gap darak yoki buyruq shaklda bo'lsa va xissiyot bilan aytilsa gap oxirida undov belgisi qo'yiladi. (ba'zan takror undov belgisi ham qo'yilishini yuqorida ko'rib o'tdik) I don't understand what you are saying! Finally you came back!

Bunda ikkala gap ham darak shaklda, lekin undov bilan tugayapti. Bilamizki bunday gaplarni rolga kirishib, ovoz tonini yuqorilatib o'qishimiz darkor. Modomiki, tinglovchiga gap mohiyati yetib borsin. Birinchi gapni nuqta bilan yakunlaydigan bo'lsak: I don't understand what you are saying. Gapning ma'nosi sekinroq gapiring yoki menga notanish bo'lgan narsa haqida gapirayotganingiz uchun sizni nima deyotganingizni tushunmayapman, demoqchi, xolos. Xabar shaklidagi gap. Lekin yuqoridagi gapda esa so'zlovchi bir xil jumlani yuqori ohang bilan ajablanib aytyaptiki, ma'no boshqa tus olmoqda. Ya'ni "nega bunday deyapsan yoki nega menga bunday ayb qo'yayapsan" degan ma'no tushunilishi mumkin. Ikkinchi gapni olaylik. Bu gap

ham xis-hayajon bilan aytilgan gap. So'zlovchi intizor odami kelgan vaqtda yoki kesatq ma'noda aytilgan gap bo'lishi mumkin. Bu gapni nuqta qo'yib yakunlasak ham xis-hayajon ma'no baribir sezilib turadi. Chunki bu gapda hayajon bilidiruvchi so'z ishtirok etmoqda. O'zbek tilida bunday vazifadagi so'zlar asosan bo'yoqdor so'zlar bo'ladi: Amirning og'zidan chiqqan yagona so'z shu bo'ldi. – O'chir, ovozingni, haromxo'r! – burilib ketayotgan chol keskin harakat bilan Amirning yuziga qamchi bosdi.

Agar gap so'roq gap bo'lsa va xis-hayajon bilan aytilsa, bunday gaplarga oldin so'roq belgisi keyin undov belgisi qo'yiladi. Talaffuzda ham so'roq ohang ham xissiyot ohang sezilib turadi. Bunda ajablanish yoki qarshilik ma'nosi sezilib turadi. Topganda, bular ishonarmidi?! Nahotki, hammasi yana boshidan boshlanadi?! (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat) Tog'a, nahotki siz orzu qilgan zamonlarga yetib kelayotgan bo'lsak?! – pichirladi Yusuf o'ziga o'zi... (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat.) Siz shuni xohlaysizmi?! Endi men qaysi ilinjga tayanib ko'z ochaman, qaysi niyat endi meni ko'chaga boshlaydi?! – Nima deysan?! (Abdulla Qodiriy.) – Xotin bo'lmasa nima, axir?! – M-m-menga zarurati bo'lmasa, a k-k-kimga bor?! So'zimni eshitasanmi, kar?! [1; 14-18].

Ikkinchi tur, ya'ni wh xis-hayajon gaplarda asosan undov belgisi ishlatiladi. Bu tur haqiqiy xis-hayajon gaplaridir. Bunday xis-hayajon gaplarida undov belgisi bilan bir o'rinda nuqta ham ishlatilishi mumkin. Faqatgina undov belgisi ishlatilsin degan qoida yo'q. Chunki gapning xis-hayajon ekanligi uning strukturasidan ma'lum bo'ladi. What a beautiful girl I see! What a beautiful girl I see.

Tuzilishi jihatidan ko'rinib turibdiki bu darak, so'roq yoki buyruq gap emas. Buni o'qiyotgan o'quvchi xis-hayajon ohangida o'qib ketaveradi. Ayniqsa embedded xishayajon gaplarida ko'p xollarda gap oxiriga nuqta qo'yiladi. It is unbelievable how tall he is. It is amazing how attractive she is. Bugungi internet asrida tinish belgilarini o'rganishning ahamiyati juda kattadir. Chunki ba'zida yuzma-yuz gaplashgandan ko'ra do'stlarimiz yoki oila a'zolarimiz bilan internetda ko'proq muloqot qilamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis T.: O'qituvchi, 1995. 149 b.
2. Vladimir Ž. Jovanović The form, position and meaning of interjections in English, 2004, p. 24
3. Hogarth, Richard Thesaurarium trilingue publicum: Being an introduction to English, Latin and Greek. London 1689 p 42- 47.
4. Lye, Thomas 1671 The childs delight. London 1671 p 139 48 Smith, John The mystery of rhetorick unveil'd. London 1983. 214 p.
5. Rodríguez-Álvarez, Alicia "A Middle English lesson on reading aloud", Atlantis. Journal of the Spanish Association for Anglo-American Studies 1998 p. 24-74